SANGZOR- ZOMIN MINTAQASI AHOLISI ETNIK TARKIBINING O‘RGANILISHI TARIXSHUNOSLIGI

N.Beknazarov
GulDU magistranti

XX-XXI asrlarda Sangzor- Zomin aholisining etnik tarkibini aniqlashga oid keng ko`lamli tadqiqotlar bu mintaqada olib borilmagan. Mintaqa aholisi tarkibi bo`yicha qilibgan ishlarga qaralganda asosan XIX asr ikkinchi yarmida o`lkaga kelgan ayrim rus shaqrqshunos va generallarining ayrim estaliklari va statiskik materiallarda bir qancha ma`lumotlar keltirib o`tilganligini ko`rish mumkin.

Xususan , mintaqa joylashgan bugungi Jizzax tarixi bilan shug`ullangan turli tadqiqotchilar jumladan ilk ilmiy kuzatishlarni amalga oshirgan, A. Vamberi[3], A.D. Grebenkin[4], A.P. Fedchenko[5], L.N. Sobolev[6], A.P. Xoroshxin[7], O.D. Chexovich[8], P.P. Ivanov[9], H. Muhammedov[1],

[1] Абдуғани Илашев.Давр нафаси.-Т: Мухаррир, 2013.-Б. 27.
[2] А.А.Грицина, М.Содиқов.Эски Ховос ва унга қўшни худудлар қадим ва ўрта асрларда.-Т:Самарқанд, 2010. –Б. 51.
[3] Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. –СПб., 1865 – С.211.
[4] Гребенкин А. Д. Узбеки // Сборник. Русский Туркестан: Сборник ст. Вып. II.– Москва: Университет. 1872.– С. 106.
[5] Федченко А. П. Путешествие в Туркестан. – Москва: “Географгиз”, 1953. – С. 17-31; Федченко А.П. Топографический очерк Зеравшанской долины и заметки о соседних бекствах и памятниках Самарканда(с картой Зеравшанской долины)// Изв. о-ва любителей естествознания, антропологии и этнографии. Т. VIII. Вып. – Ташкент-Москва: 1870 – С. 130-131.
[6] Соболев Л.Н. Географические и статистическая сведения о Зеравшанском округе с приложением списка населенных мест округа// Зап. Рус. геогр. о-ва по отделению статистики/ Т.IV. –СПб., 1874. – С. 713-714.
[7] Хорошхин А.П. Кызил-Кумский дневник // Сборник статей, касающихся Туркестанского края. – СПб, 1876. – С. 400.
[8] Чехович О.Д. Бухарские документы XIV века. ДокументыXVI-XVII вв. Джуйбарских шейхов на персидском языке. Перевод на русский язык с примечаниями П. П. Иванова и др. –Ташкент: “Фан”, 1965.–С. 61-114.
[9] Иванов П.П. Хозяйство джуйбарских шейхов (К истории феодального землевладения в Средней Азии в XVI-XVII вв.) [исследование, тексты и переводы документов]. – Москва: “Наука”, 1954. – С. 46-54.

Ya. G'ulomov[2], B.F. Yusov[3] va boshqalar tomonidan to'plangan ma'lumotlar istoriografik manba sifatida Jizzax vohasi hususan Sangzor- Zomin mikro vohasi tarixi haqida xam bir qator ma`lumotlar ko`zga tashlanadi. XIX -XX asrlarga oid bo`lgan bu kabi tadqiqotlarda asosan materiallar bir biridan ko`chirilgan yoki takrorlanga holatlar anchagina ko`p uchraydi.Bu kabi o`lkani o`rganish uchun kelgan tadqiqotchilarning ishlari mintaqa tarixi aholi etnik tarkibi xaqida dastlabki malumotlarni bera olishi bilan xam ahamiyatlidir.

Rossiya imperiyasi mustakmlakachiligi va sovet hukumatining ilk yillarida aholini ro'yxatga olish qaydnomalari[4], O'zbekiston Respublikasi Malliy arxivida saqlanayotgan "Qushbegi mahkamasi arxivi"[5], XX asrning 20-yillariga oid etnografik ma'lumotlar[6], M.S. Andreev[7], I.I. Zarubin[8], V.G. Moshkova[9], B.X. Karmisheva, Ye.M. Peshchereva[10], N.B. Nemseva[11], V.P. Alekseev, N.A. Dubova[12] kabi tarixchi, etnograf, arxeolog va boshqa soha olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'rin olgan ma'lumotlar tahliliy va tasnifiy o'rganilib, tadqiqot uchun zarur hollarda foydalanilib bu mikro voha tarixini o`rganishda manba vazifasini o`tashligini alohida takidlash lozim. XX asrda o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi, etnik tarkibi hamda mintaqalardagi qator subetnoslar bo'yicha K.Sh. Shoniyozov, T. Fayziev, B. Ahmedov, M. Ermatov, B.X. Karmisheva, A. Muhammadjonov, X. Toshev[13] kabi olimlarning fundamental monografiya va tadqiqotlari nashr etildi. Tadqiqotda mustaqillik arafasida hamda istiqlol yillarida O'zbekiston toponimiyasi bo'yicha izlanishlar olib borgan S. Qoraev[14], T. Nafasov[15], E. Begmatov[16], N. Oxunov[17], U. To'ychiev[18], A. Turobov[19], N. Begaliev[1], Q.Hakimov, S. Bo'rievlar[2]tomonidan keltirilgan ilmiy-metodik ishlarida

---

[1] Muhamedov H. Qadimiy mudofaa devorlari. –T.: "Fan", 1973. – B.14-19.

[2] Гулямов Я.Г. К изучению древних водных сооружений в Узбекистане //Изв. АН УзССР. 1955. №2. – С 63.; Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Т.: Фан, 1959. –С.67-110.

[3] Юсов Б.В. А. П. Федченко [1844-1873, Русский путешественник, исследователь Средней Азии] / Под редакцией Э. М. Мурзаева. – Москва: Географгиз, 1953. – С. 16.

[4] Материалы для статистики Самаркандской области 1887-1888 гг. Вып. 1. – Самарканд: 1890. –С.77-78; Материалы Всероссийских переписей 1920 года. Перепись населения Туркестанской Республики. Ч. 1. вып. 5. Население Самаркандской области. – Т.: 1924. – С.36-37.

[5] Ф. И-126 «Канцелярия Кушбеги эмира бухарского», Ф.И-323. Ф.Р-59.; O'zR MA, 21-fond, 1-3ro'yxat, 1233-ish, 86 varaq. O'zMA, I-1, № 12 ro'yxat, 1441 yig'ma jild, – B. 128^{ob}-145; Abduvahhobova M. R. Qushbegi arxivida tarixiy toponimlar va Buxoro amirligining ma'muriy-hududiy tizimi (ilmiy risola). Mas'ul muharrir: M.M. Ishoqov. – T.: Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti nashriyoti, 2006. – B. 14.

[6] Материалы Всероссийских переписей 1920 года. Перепись населения Туркестанской Республики. Ч. 1. вып. 5. Население Самаркандской области. – Ташкент: 1924. – С.36-37.

[7] Андреев М.С. Некоторые результаты этнографической экспедиции в Самаркандской области в 1921 году. – Т.: "Наука", 1922. – С.22-37.

[8] Зарубин И. И. Население Самаркандской области. (Численность этнографический состав и территориальное распределение с этнографической картой). – Л.: Изд. Акад. наук, 1926. – С.8-25.

[9] Мошкова В.Г. Некоторые общие элементы в родоплеменном составе узбеков, каракалпаков и туркмен. // Материалы по археологии и этнографии Узбекистана: Труды института Истории и археологии АН УзССР. Т. 2. – Т., 1950. – С. 141-149; Мошкова В.Г. Ковроделие узбеков племени туркмен // Ковры народов Средней Азии. – Т.:1977. – С. 69-77.

[10] Кармышева Б.Х., Пещерова Е.М. Материалы этнографического обследования таджиков Нуратинского хребта // СЭ. – 1964. –№1.– С.7-21.

[11] Караванными дорогами Голодной степи//Вехи времён: – Т.: Альманах, 1989. – С. 41-44.

[12] Туркмены в Среднеазиатском междуречье // Под редакцией Алексеева В.П., Дубова Н.А. – Ашхабад: "Ылим". 1989. – С. 5-25.

[13]Ташев Х. Культура и быт животноводов Зарафшанской долины (конец XIX – 60-е XX в.). Автореф.дисс.канд.ист.наук. – Т., 1968.

[14] Qoraev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. Mas'ul. muharrir: A. Muhammadjonov. – T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2005. – B. 172-179.

[15] Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – T.: "O'qituvchi", 1988. – B. 17-218; Нафасов Т. Топонимы Кашкадарьинской области: автореф…дис… кан-та фил.наук / Т. Нафасов. – Т., 1968. – 30 с.

[16] Begmatov E. Joy nomlari ma'naviyat ko'zgusi. [Mas'ul muharrir: N. Mahmudov] – T.: Ma'naviyat, 1998. – 64 b.

[17]Oxunov N. Joy nomlari ta'biri. Muharrir: Z. Hakimov. – T., 1994. – B.4 -51.

[18]Туйчиев У. История расселения народов Узбекистана (по данным топонимии Зарафшанской долины). Автореф. канд.ист. наук. – Т.: ИИ АНРУз. 1990. –С. 23

[19]Turobov A.M. Samarqand etnonim va etnooykonimlari. – Samarqand: SamDChTI, 2002.

xam bevosita bu mikro vohaga aloqali va aloqador bo`lmagan malumotlar borligi ko`zga tashlanadi. Voha toponimlarini manbaviy material sifatida o‘rganish asnosida ushbu ishlardagi ma’lumotlar ham e’tiborga olindi. Shuningdek, yaqin yillarda Q. Hakimov tomonidan Jizzax viloyati toponimlarini o‘rganiib chiqilishi tadqiqoqtimizda uning ishlaridan unumli fodalanishga harakat qildik.

Bugungi O‘zbekiston hududi tarixini etnotoponimik jihatdan tadqiq etishda Jizzax vohasi xususan Sangzor- Zomin mikro vohasi etnotoponomikasiga e’tibor qaratgan ilmiy izlanishlarning katta bir qismi sobiq Sovet davri tarixshunosligiga to‘g‘ri keladi. Qadimdan asosan o‘troq dehqon, qisman esa ko‘chmanchi chorvador aholi uchun makon bo‘lib kelgan Sangzor- Zomin mikro vohasidagi aholi maskanlari miloddan oldingi mingyilliklardayoq Markaziy Osiyo mintaqasining chorrahasida joylashgan o‘lka sifatida bo‘lib kelgan. Bu haqda turli tillardagi tarixiy manbalarda (grek-yunon, xitoy, arab, hind) muhim ma’lumotlar mavjud.

Aslida Jizzax vohasi va bugungi Zomin, Baxmal, G`allaorol tumani aholisining etnik tarkibi va toponimlari bo‘yicha dastlabki ilmiy izlanishlar XIX asrning so‘nggi choragida boshlangan bo‘lib, asosan rus sharqshunos va etnograf olimlari vohaga tashrif buyurib, bu borada o‘zlarining dastlabki fikr-mulohazalarini bildirgan edilar. Bundan ancha oldin N. Xanikov tomonidan boshlangan bu tarzdagi izlanishlar A.D. Grebenkin tomonidan yanada izchillik bilan davom ettirildi. Vohaga tashrif buyurgan mashhur rus turkologi V.V. Radlov bir qator viloyat va tumanlarda bo‘lib, mahalliy aholining etnik tarkibi, til va lahja xususiyatlari masalalarni o‘z asarlarida ancha batafsil yoritdi[3].

XX asr boshlarida mavzu doirasidagi tadqiqotlar jadallashdi va 20-30 yillarda bir qator ilmiy asarlar dunyo yuzini ko‘rdi. Xuddi shu yillarda mahalliy tadqiqotchilar ham lingvistik materiallar to‘plash mobaynida voha aholisining etnik tarkibi, etnonimlar bilan bog‘liq joy nomlariga ham birmuncha to‘xtalib o‘tishgan. Ayniqsa, tilshunos va adabiyotshunoslar orasida G‘. Olim Yusupov, H. Zarif, S. Ayniy kabi mahalliy ziyolilar voha tarixi va etnik xususiyatiga doir o‘z qarashlarini e’lon qildilar[4].

XX asrning 20-yillaridan O‘rta Osiyo aholisini etnografik jihatdan tadqiq etishning yangi bir bosqichi boshlandi. Bu davrda etnografik tadqiqotlar xarakteri va ahamiyati haqida tarixshunoslik tadqiqotlarida tahlil etilgan.

Sovet davrida bir qator o‘zbekistonlik tadqiqotchilar ham mintaqa, shu jumladan, Jizzax vohasi tarixiy toponimiyasiga u yoki bu darajada to‘xtalib o‘tganlar. Xususan, manbashunos va arxeolog olim A. Muhammadjonov vohaning sug‘orilish tarixini yoritish mobaynida bu yerning tarixiy joy nomlariga ham to‘xtalib o‘tgan bo‘lib, tadqiqotchi tomonidan keltirilgan tarixiy materiallar bugungi kunda ham o‘z ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan[5]. Ayniqsa, uning “Buxoro xonligining aholi manzillari” nomli tadqiqoti bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlar uchun manba vazifasini bajarmoqda[6].

1960-1970 yillarda o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi, etnik tarkibi hamda mintaqalardagi qator subetnoslar bo‘yicha B. Ahmedov, K.Sh. Shoniyozov, M. Ermatov, X. Doniyorov, X. Toshev kabi olimlarning fundamental monografiya va tadqiqotlari nashr etildi[7]. Shuningdek, S. Qoraev, U.

---

[1] Begaliev N.B. O’zbek etnonimlari tarixidan. – Samarqand: SamDChTI, 2004; Begaliev N.B. Samarqand etnotoponimlari tarixidan. – Samarqand: SamDChTI, 2011.

[2] Bo’riev S.N. Urgut tumani mikrotoponimlarining leksik-semantik tahlili.: Filologiya fanlari bo’yicha nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2010.

[3] Радлов В.В. Из Сибири. Страницы дневника. – М.: 1989. – С. 532-578.

[4] Olim F. O’zbek urug’laridan qatag’onlar va ularning tili. Ilmiy fikr jurnali, №1. – Samarqand – Toshkent, 1930 (lotin yozuvida); Ayni S. Kulliyot. ***Ч***.12. G’S.Ayn***ӣ***.–Dushanbe:Irfon,1976.–S.124-150.

[5] Мухаммеджанов А. История орошения Бухарского оазиса (с древенейших времен до начала XX в. – Т., 1978.

[6] Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX - начало XXв.) / Материалы к историческойгеографии Средней Азии. Под. Ред. А.Р. Мухаммеджанова. –Т.: Университет, 2001.

[7] Ахмедов Б. Государство кочевых узбеков. – М.: Наука, 1965; Шаниязов К. Узбеки-карлуки (историко-этнографический очерк). – Т., 1965; O’sha muall. К этничексой истории узбекского народа. – Т., 1974; Эрматов М. Этногенез и формирования узбекского народа. – Т., 1968; Doniyorov X. O’zbek xalqi shajara va shevalari. – T.: Fan, 1968; O’sha muall. Eski o’zbek adabiy tili va qipchoq dialekti. – T.,1976; Ташев Х. Культура и быт животноводов Зарафшанской долины (конец XIX – 60-е XX в.). Автореф.дисс.канд.ист.наук. – Т., 1968.

To‘ychiev, Q.Hakimov, Q.Yo‘ldoshev, B.To‘ychiboev kabi toponomist va elshunos olimlarning tadqiqotlarida ham mintaqaning tarixiy joy nomlari, xususan, Jizzax vohasi etnotoponimlari lingvistik jihatdan tahlilga tortildi[1]. Shu bilan birgalikda yana bir qator tadqiqotchilarning ishlarida voha toponimikasiga u yoki bu darajada to‘xtalib o‘tilgani ko‘zga tashlanadi.

B. Ahmedov ko‘chmanchi o‘zbeklarning siyosiy faoliyati, ularning vohaga kirib kelish va tarqalish jarayonlariga, shuningdek, Shayboniy sulolasi vakillarining Jizzax vohasida o‘tkazgan yer-suv islohotlari, aholining Nurota va Zarafshon vohalarida joylashuvi masalalariga birmuncha to‘xtalib o‘tgan[2]. Yirik etnograf olim K. Shoniyozov esa o‘zbeklarning etnik tarixida katta o‘rin tutgan urug‘-qabilalarga, xususan, o‘zbeklarning qipchoq va qarluq komponentlariga bag‘ishlab yozgan maxsus monografiyalarida markaziy vohalarga katta e’tibor qaratgan[3]. Yirik olim birinchilardan bo‘lib, vohaning XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida Jizzax vohasida yashagan o‘zbeklarning urug‘-qabilaviy tarkibini keng ko‘lamda yoritgan va ko‘plab urug‘larning tarkibiy bo‘linishlari haqidagi ma’lumotlarni ilm ommasiga yetkazib bergan[4]. K. Shoniyozovga ko‘ra, Movarounnahr muhim bir qismini qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi o‘zbeklar tashkil etgan bo‘lib, ularning aksariyati markaziy va janubiy viloyatlarda Jizzax, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, shimolda esa Nurota, Jizzax, Toshkent, Farg‘ona vodiysi o‘zbeklari bilan o‘xshash tarkibga ega bo‘lgan[5]. O‘z tadqiqotlarida etnolingvistik dalillarga tayanib ish olib borgan X. Doniyorov ko‘p yillar davomida Samarqand va Jizzax viloyatlari o‘zbek aholisining etnografik xususiyatlariga to‘xtalgan. Tilshunos olim etnologik kuzatishlarga tayangan va ularni o‘rta asrlardagi yozma manbalar ma’lumotlar bilan solishtirib chiqqan. Bu esa uning tadqiqotlari muvaffaqiyatli chiqishini ta’minlagan[6].

O‘zbekistondagi toponimlar bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarning katta bir qismi S. Qoraevga taalluqlidir. Toponimist olim nafaqat tarixiy joy nomlarini, balki mamlakatimizda hozirda mavjud bo‘lgan toponimlarning ko‘pchilik qismini lingvistik jihatdan tahlil qilib, ularning etimologiyasini aniqlab bergan[7]. Jumladan, u Jizzax vohasi va unga qo‘shni hududlardagi yuzlab geografik nomlarga to‘xtalib, ularning sezilari qismini etnotoponimlar tashkil etishini ta’kidlagan. Shuningdek, tadqiqotchining ishlaridan ushbu hududlar toponimikasining katta bir qismi o‘zbekcha (turkiy), sezilarli bir qismi esa tojik (forsiy) va arabcha nomlardan iboratligi ko‘plab dalillar asosida ko‘rsatib berilgan.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixini toponomik ma’lumotlar asosida o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarning sezilarli bir qismini mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar tashkil etadi. Avvalo aytib o‘tish kerak, bu davrda olib borilgan tadqiqotlarda ko‘proq arab-fors, xitoy va boshqa tillarda yozilgan birlamchi yozma manbalarga tayanish barobarida arxeologik topilmalar, xususan, sug‘diy tilli hujjatlar va numizmatik materiallar ham jalb qilinayotganligi diqqatga sazovordir. O‘zbekistonning tarixiy toponomiyasi, shu jumladan, Jizzax vohasi toponimlari, xususan, etnotoponimlari bo‘yicha ko‘p yillardan beri tadqiqotlar olib borgan S. Qoraev, Q.Hakimov, M.Mirkamilov, A.Zokirov, U.To‘ychiev, Q.Almanov[8]lar bu davrda ham o‘z izlanishlarini davom

---

[1]Qoraev S. Geografik nomlar ma’nosi. – T.: O’zbekiston, 1978; Qoraev S. O’zbekiston viloyatlari toponimlari. Mas’ul. muharrir: A. Muhammadjonov. – Toshkent: O’zbekiston milliy entsiklopediyasi,2005; Туйчиев У. Отражение этнонимов в топонимии Булунгурского района // Ономастика Средней Азии. – Фрунзе, 1980. – Вып. 2. – С. 34-45; Ўша муалл. Этнотопонимы и этническая география Джамбайского района // Ўша жойда. – С. 46-54.

[2]Ахмедов Б. Государство кочевых узбеков. – М.: Наука, 1965.

[3] Шаниязов К.Ш. УзбекиКарлуки: Историкоэтнографический очерк. – Т.: Наука, 1964; Шаниязов К.Ш. К этнической истории узбекского народа (историкоэтнографические исследования на материалах кипчакского компонента). – Т.: Фан, 1974.

[4] Shoniyozov K. Qang’ davlati va qang’lilar. – T.: Fan, 1990; O’sha muall. Qarluq davlati va Qarluqlar. – T., Sharq, 1999; O’sha muallif. O’zbek xalqining shakllanish jarayoni. – T.: Sharq, 2001.

[5] Shoniyozov K. O’zbek xalqining shakllanish jarayoni.... - B. 408-419.

[6] Doniyorov X. O’zbek xalqi shajara va shevalari. – T.: Fan, 1968; O’sha muall. Eski o’zbek adabiy tili va qipchoq dialekti. – T., 1976.

[7]Qoraev S. Geografik nomlar ma’nosi. – T.: O’zbekiston, 1978; Qoraev S. O’zbekiston viloyatlari toponimlari. Mas’ul. muharrir: A. Muhammadjonov. – Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.

[8] Туйчиев У. Отражение этнонимов в топонимии Булунгурского района …– С. 34-64; Туйчиев У. Этнотопонимы и этническая география Джамбайского района // Ономастика Средней Азии. 2. – Фрунзе: Илим,

ettirishdi. Ayniqsa, voha etnotoponimlari va aholining etnik tarkibi masalasida tadqiqotlar olib borayotgan Q. Almanovning ishlari ham alohida ajralib turadi.[1]. Tadqiqotchining voha etnotoponimikasini yaxshi bilishi, xususan, Jizzax viloyatidagi yuzlab aholi maskanlariga doir birlamchi ma'lumotlarni yig'ib, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilib, viloyatdagi joy nomlarning sezilarli qismi XX asrning oxiri – XXI asr boshlarida vohada mavjud bo'lgan etnonimlarga borib taqalishini aniqlashi diqqatga sazovordir.

Arxeolog olim A. Gritsina va M.Pardaevning ilmiy ishlari tarixiy Ustrushona geografiyasini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar o'z izlanishlarida asosiy e'tiborni Jizzax vohasining islomdan oldingi davrlariga to'xtalgan bo'lsa-da, voha toponimikasi haqida muayyan tasavvurlar berishi bilan alohida ajralib turadi. M. Pardaev rivojlangan o'rta asrlarga taalluqli arab-fors tilli manbalardagi ma'lumotlardan bugungi kunda ham saqlanib qolgan joy nomlari bilan solishtirgan holda tarixiy toponimlarning geografik joylashuv o'rni – lokalizatsiyasi masalasiga to'xtalar ekan o'zi va hamkasblari tomonidan olib borilayotgan arxeologik qazishmalar natijalariga tayanib ish tutayotganligi ko'zga tashlanadi[2]. Bu esa tadqiqotchi tomonidan amalga oshirilayotgan izlanishlarning muvvafaqiyatini ta'minlagan.

Mustaqillik yilllarida amalga oshirilgan diqqatga sazovor tadqiqotlardan biri sharqshunos tarixchi olim Sh. Kamoliddinga tegishlidir. O'z izlanishlarida asosan arab geograflari asarlariga tayanib, ularni arxeologik materiallar bilan taqqoslab o'rgangan tadqiqotchining keyingi yillarda mintaqaning qadimgi turkiy toponomiyaga bag'ishlangan ishlari ko'pchilik olimlarning diqqatiga sazovor bo'ldi. Uning "Markaziy Osiyoning qadimgi turkiy toponimlari" nomli monografiyasida yuzlab joy nomlari ko'rib chiqilgan bo'lib, tadqiqotchi rivojlangan o'rta asrlarga oid arab-fors, xitoy va boshqa tillardagi yozma manbalardagi toponimlarning sezilarli bir qismini turkiycha joy nomlari tashkil etishini aniqlagan[3].

Shu narsa e'tiborliki, mintaqa tarixini o`rgangan Sh. Kamoliddinning tarixiy toponimlarini tadqiq etish jarayonida kelib chiqishi noma'lum bo'lgan yoki turkiy tilda izohlanishi qiyin bo'lgan bir qator joy nomlarini turkiy til bilan bog'lashga urinishi birmuncha munozaralidir. Xususan, uning oxiri –gon, –gon, –xon topoformantlari bilan tugallanuvchi joy nomlarini turkiy tilda izohlashi[4] munozaralidir.

Keyingi yillarda Jizzax vohasiga doir etnologik izlanishlar olib borgan tadqiqotchilardan biri Q. Almanovning ishlari e'tiborga molik. Tadqiqotchi Jizzax vohasi va uninig tog'li rayonlari xisoblangan Zomin, Baxmal, Yangiobod hududlarida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mavjud bo'lgan etnik holatni o'rganish mobaynida vohadagi qirq, yuz, qaropchi, *nayman*, *saroy*, *qipchoq*, *turkman* ("Nurota turkmanlari" yoki "o'zbek-turkmanlari")kabi o'nlab o'zbek urug'larining urug'-

---

1980. – С.46-54; Туйчиев У. Топонимы Зарафшанской долины, возникшие в связи с расселением найманов // Материалы конференции по ономастике Узбекистана, Джизак, 1985. – С.24-25; Туйчиев У. Этнонимиы генеалогии этнографической группы «каракалпак» в топонимии Зарафшанской долины // Материалы конф. проф-преп. состава ТОГПИ. – Ангрен, 1980; Туйчиев У. Топонимы, возникшие от названий топографических предметов в процессе освоения земель Самаркандской области // Тез. докл. конф. на тему: «Круглогодичное использование орошаемых земель». – Т., 1981;т Туйчиев У. История расселения населения Самаркандского оазиса (по данным топонимии) // Россия – Узбекистан: История и современность (ч.VI). – М.: Журнал "ЕвроАзия". Август 2009. № 7. – С. 11-18; To'ychiev U., Ergashev Sh. Zarafshon vodiysi qishloq aholisi joylashishi tarixidan. Nizomiy nomidagi TDPI professor-o'qituvchilarining "Pedagogik ta'limda innovatsiyalar: muammolar, izlanishlar va yechimlar" mavzusidagi Respublika oliy o'quv yurtlarining olimlari ishtirokidagi XXXIII an'anaviy ilmiy-nazariy va amaliy-uslubiy konferensiyasi ma'ruzalari. 2003 yil 22-23 may. – Angren, 2003. – B. 21-23. Almanov Q.O. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Jizzax vohasida etnotoponimlarning shakllanishi tarixi https:science.nuu.uz. Social sciences 4-6. B. 2022.

[1] Almanov Q. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax shahri aholisining ijtimoiy va etnik tarkibi. http:science.nuu.uz.uzmu. 2022, Almanov Q.O. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Jizzax vohasida etnotoponimlarning shakllanishi tarixi. https:science.nuu.uz. Social sciences 4-6. B. 2022.

[2] M.H.Pardayev, B.B.To'ychiboyev. Ustrushona qadimda va ilk o'rta asrlarda. Toshkent:. 2017-y. Pardayev M.H., G'ofurov J.I. Ustrushonaning ilk o'rta asr qishloq makonlari (yozma va arxeologik manbalar asosida). -T:. 2016-y.

[3] Камолиддин Ш. С. Древнетюркская топонимия в Средней Азии. – Т.: Шарк, 2006; Kamoliddin Sh.S. Ancient Türkic Toponyms of the Middle Asia (Turkic Place-Names in Ancient and Early Medieval Sources) / LAP LAMBERT Academic Publishing. – Saarbrücken, 2010.

[4] Kamoliddin Sh.S. Ancient Türkic Toponyms of the Middle Asia ... – P. 40-41, 57-58.

qabilaviy tarkibiga bag‘ishlangan bir qator ilmiy maqolalar chop ettirdi[1]. Tadqiqotchining o‘zbek urug‘larini tarkibini etnologik jihatdan tahlil qilar ekan, har bir urug‘ tarkibidagi mayda urug‘ va to‘por (to‘p)larga sinchikovlik bilan to‘xtalgani, ularning tarqalish geografiyasini izchillik bilan yoritganligi diqqatga sazovordir.

Xullas, Jizzax vohasi etnotoponimlarining o‘rganilishi masalasiga sovet va mustaqillik davrlarida o‘rganilishi bilan qisqacha tanishib chiqish shundan darak beradiki, bu sohada bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan va muayyan yutuqlar qo‘lga kiritilgan. Xususan, Jizzax vohasi joy nomlarining tarixiy ahamiyati, qariyb ikki ming yil davomida vohada kechgan ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlar yoritilib, bugungi kunda vohada yashovchi aholining shakllanishida asosiy rol o‘ynagan omillar ko‘rsatib berilgan.